

Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor,
Samarqand xalqaro texnologiya universiteti
prorektori

Suvanova Kamola Raimqul qizi,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand
kampusi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), "Pedagogika" kafedrası dotsenti

ART-PEDAGOGIKA ASOSIDA O'QITUVCHILARNI HAMKORLIKDA O'QITISH VA SOG'LOM PSIXOLOGIK IQLIMNI RIVOJLANTIRISH

UO'K 37; 370; 374.6

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2026_ISSUE_3_5](https://doi.org/10.34920/so/vol_2026_issue_3_5)

IBRAGIMOV A.A., SUVANOVA K.R.-Q, ART-PEDAGOGIKA ASOSIDA O'QITUVCHILARNI HAMKORLIKDA O'QITISH VA SOG'LOM PSIXOLOGIK IQLIMNI RIVOJLANTIRISH

Maqolada o'qituvchilarni art-pedagogika asosida kasbiy faoliyatiga ijtimoiy va hissiy ko'nikmalarini rivojlantirish, san'at orqali o'qituvchilarning hissiy zo'riqishining oldini oluvchi sog'lom-ruhiy muhitni odatdagi ish kundalik ko'nikmasiga aylantirish, o'zaro hurmatga asoslangan mehr madaniyatini rivojlantirish muhimligi, san'at bilan yashash va ruhiy barqarorlikka erishishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, o'qituvchilarni uzluksiz art - pedagogika asosida hamkorlikda o'qitish orqali kasbiy birdamlikka erish konsepsiyasi taqdim qilingan.

Tayanch so'z va tushunchalar: interdissiplinar yondashuv, hissiy ko'nikmalar, pedagogik konsalting, peer-to-peer learning, kollektiv refleksiya.

ИБРАГИМОВ А.А., СУВАНОВА К.Р.-К. ОБУЧЕНИЕ УЧИТЕЛЕЙ СОТРУДНИЧЕСТВУ И РАЗВИТИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО КЛИМАТА НА ОСНОВЕ АРТ-ПЕДАГОГИКИ

В статье рассматривается важность развития социально-эмоциональных навыков учителей в их профессиональной деятельности на основе арт-педагогики, превращения здоровой психологической среды, предотвращающей эмоциональный стресс, в регулярную ежедневную рабочую привычку учителей посредством искусства, полного использования культуры любви, основанной на взаимном уважении, жизни в мире искусства и достижении психической стабильности. Также представлена концепция достижения профессионального единства посредством непрерывного арт-педагогического обучения учителей.

Ключевые слова и понятия: междисциплинарный подход, эмоциональные навыки, педагогическое консультирование, взаимное обучение, коллективная рефлексия.

IBRAGIMOV A.A., SUVANOVA K.R.-K. TRAINING TEACHERS IN COLLABORATION AND DEVELOPING A PSYCHOLOGICAL CLIMATE BASED ON ART-PEDAGOGY

The article considers the importance of developing the socio-emotional skills of teachers in their professional activities based on art pedagogy, turning a healthy psychological environment that prevents emotional stress into a regular daily work habit of teachers through art, full use of a culture of love based on mutual respect, living in the art world and achieving mental stability. The concept of achieving professional unity through continuous art pedagogical training of teachers is also presented.

Keywords and concepts: interdisciplinary approach, emotional skills, pedagogical consulting, peer-to-peer learning, collective reflection.

Kirish. Jahonda ijtimoiy-iqtisodiy, axborot, ma'naviy o'zgarishlar sharoitida kechayotgan global jarayonlar ta'lim tizimini davr talabiga mos ravishda takomillashtirish muammosini yanada keskinlashtirmoqda. AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya kabi davlatlarda art va pedagogika fanlarini integrativ o'qitishga ustuvorlik berilib, dunyoning ko'plab davlatlarida bu tajriba qo'llanilmoqda. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish o'qitishda ijtimoiy va umumkasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy talablarga muvofiq qayta tayyorlash va muntazam ravishda malaka oshirib borishning samarali mexanizmlarini joriy etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ta'lim sifati va pedagog xodimlar kasbiy mahoratiga qo'yiladigan talablarning to'xtovsiz oshib borayotganligi o'qituvchining o'z faoliyatini yangicha yondashuvlar asosida tashkillashtirishi lozimligini taqozo qiladi. Chunki zamonaviy o'qituvchi nafaqat o'zining kasbiy mahorati va yuqori malaka darajasi, balki intellekti, innovation jarayonlardagi faol ishtiroki, mehnat faoliyati samaradorligi hamda natijalarini loyihalay olishi, vaziyatlarni to'g'ri baholash va kirishimli bo'lish, o'z ishiga tanqidiy, ijodiy yondashish, tashqi ta'sirlarga bardoshli, axborotlarni tezkor topish va qayta ishlash, harakatchan, tashabbuskor bo'lishi bilangina ta'lim muhitida raqobatbardoshligini saqlab qoladi¹.

Tadqiqotning maqsadi art-pedagogik texnologiyalar vositasida o'qituvchilarni hamkorlikda o'qitish metodikasini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti umumiy o'rta ta'lim muassasalari hamda pedagogik mahorat markazi.

Tadqiqotning predmetini o'qituvchilarning hamkorlikda faoliyat yuritishini ta'minlash orqali ularning kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi art-pedagogik texnologiyalardan foydalanishga asoslangan didaktik jarayon, vositalar, shakl va metodlar tashkil etadi.

Mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning qisqacha tahlili.

San'at ijodiy ongini shakllantirishning eng qulay va kuchli usullaridan biridir va bu yangi an'analar zamonaviy metodikalar, har taraflama o'qituvchilarni kasbiy rivojlanishida yangi yondashuvlarni ishlab chiqish o'qituvchilarni kasbiy rivojlanishida esa art - pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish tobora kengroq tatbiq qilinishni ko'rsatmoqda. O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini amalga oshirishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagogning kasbiy tayyorgarligi sifatiga bog'liqdir. Maktablarda zamonaviy bolalarni tinglay oladigan, eshitadigan va tushuna oladigan, pedagogik voqelikni har tomonlama idrok eta oladigan va ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan ochiq konstruktiv muloqotga tayyor bo'lgan o'qituvchilar kerakdir. Xorijiy mamlakatlar olimlaridan E.V.Eysner (Elliot W. Eisner)², H.Gardener (Howard Gardner)³, D.Goleman (Daniel Goleman)⁴, L.Darling-Xammond (Linda Darling-

² Eisner E.W. (2002). The Arts and the Creation of Mind. Yale University Press.

³ Gardner H. (1983). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. Basic Books.

⁴ Goleman D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. Bantam Books.

¹ Ibragimov A.A. Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish tizimini ko'p vektorli yondashuv asosida takomillashtirish. Pedagogika fan. fal dok.Diss. – T: 2018.

Hammond)¹, P.Jonston (Peter H. Johnston)², M.Benner (Mark Bennet)³, K.Kuper (Chraig Chooper)⁴ va boshqalarning ishlarida san'at orqali ta'lim (art-pedagogika), ijtimoiy-hissiy rivojlanish, muloqot madaniyati, emotsional ong, hamdardlik kabi kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritib berilgan.

"Art-pedagogika – bu san'atning har xil turlarini shaxs tarbiyasiga integratsiyalashgan holda qo'llashga asoslangan pedagogik texnologiyadir"⁵. Pedagogika va turli xil san'at turlarining barcha ko'rinishlarida uyg'unligi bizga ta'lim va tarbiyaning yangi, eng zamonaviy va dolzarb bo'lgan usullarini o'zlashtirishga imkon beradi. Buning yordamida o'rganishni yanada samarali, ijodiy va har bir inson uchun qulay qilish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, badiiy pedagogikaning yaqqol ustunliklari qatoriga uning malakali va tizimli qo'llanilishi, umuman pedagogikada, xususan, korrektsiya pedagogikasida ham yangi ijodiy yo'llarni izlash imkoniyatini oshirishi kiradi. Bularning barchasi bolalar va kattalarning fan va san'atni yanada yaxshiroq o'zlashtirishiga, ma'naviy-axloqiy yetuk bo'lishiga xizmat qilmoqda, bu esa bugungi kunda juda dolzarbdir.

O'.Zubaydullayev tomonidan talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimining axborot va o'quv-metodik ta'minoti integrativ-ijodiy topshiriqlar, "O'qitishda musiqaviy yondashuv", "Teatr va hayot", "Mohir rassom", "Chaplangan qog'oz" kabi art-pedagogik metodlar, vizual simulyatsiya (tasvirli, namoyishli, interfeysli) hamda art-pedagogik treninglarning motivatsion-kognitiv imkoniyatlarini aniqlash asosida boyitilgan⁶.

¹ Darling-Hammond, L. et al. (2020). The Design of SEL through Schools. CASEL.

² Johnston P.H. (2004). Choice Words: How Our Language Affects Children's Learning. Stenhouse Publishers.

³ Bennett M. (1993). Towards Ethnorelativism: A Developmental Model of Intercultural Sensitivity. In Education for the Intercultural Experience.

⁴ Cooper C. (2011). Empathy in Education: Engagement, Values and Achievement. Continuum Publishing.

⁵ Железовская Г.И., Еремина С.В. Принципы формирования дидактических терминов // Ж. Педагогика, 1999. - №5. - С. 18-22.

⁶ O'. Zubaydullayev. Bo'lajak o'qituvchilarni art-pedagogika asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 2023.

Tadqiqotchi J.Inna o'z ilmiy ishlarida art-pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishning o'rni va keng imkoniyatlarini tahlil qiladi. Muallif tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faol shaxsini rivojlantirishda art-pedagogikaning mazmun-mohiyati batafsil yoritib berilgan hamda ushbu texnologiyalarni amaliyotga joriy etishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va ularning yechimlari ko'rsatib o'tilgan⁷. V.Eysner fikriga ko'ra, san'at ta'limi ta'lim oluvchilarga dunyoni idrok etish va uni hissiy anglash kompetensiyalarini shakllantirish imkonini beradi. Art-pedagogik yondashuv o'quvchilarda kutilmagan imkoniyatlarni payqash, muammoli vaziyatlarga kreativ yondashish va ichki kechinmalarini vizual-badiiy shakllarda ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi. Bu jarayonda moddiy san'at asarining o'zidan ko'ra, uni yaratish jarayonida subyekt ongida sodir bo'ladigan sifat o'zgarishlari va shakllangan intellektual salohiyat ustuvor ahamiyat kasb etadi⁸. K.Kuperning fikricha, san'at orqali ta'lim berish jarayonida o'quvchilarda nafaqat ijodiy mahorat, balki ijtimoiy bog'liqlik va empatiya tuyg'ulari rivojlanadi, bu esa ta'lim muhitida o'zaro hamjihatlikni ta'minlaydi⁹.

Tadqiq va tahlil. Jahon amaliyotida kuzaatilayotgan ta'lim tizimidagi yangicha yondashuvlar art-pedagogik texnologiyalar orqali ta'lim oluvchilarning estetik didi, ijodiy qobiliyatlari, emotsional-intellektual imkoniyatlari, hissiy va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish hamda pedagoglarni hamkorlikda ta'lim jarayonidagi o'zgarishlarga moslashtirish tobora kengroq tatbiq etilayotganligini ko'rsatmoqda. Mazkur yondashuv san'at, pedagogika, psixologiya hamda ijtimoiy hamkorlik sohalarining kesishmasida joylashgan interdisiplinar (biror muammoni turli fanlar orqali yechish,) tushuncha sifatida talqin qilinadi. U o'qituvchilarning emotsional-ijtimoiy faolligini, kollektiv refleksiyasini hamda estetik idrokini rivojlantirishga xizmat qiluvchi

⁷ Житная И.В. Педагогические условия эстетического развития детей дошкольного возраста: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Ростов-на-Дону, 2006. – 22 с.

⁸ Eisner, E. W. The Arts and the Creation of Mind. – New Haven: Yale University Press, 2002. – P. 13-15..

⁹ Cooper, C. Empathy in Education: Engagement, Values and Achievement. – London: Continuum Publishing, 2011. – P. 45-50.

zamonaviy pedagogik amaliyot va nazariy yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Interdissiplinar (fanlararo) — bu bir nechta turli fan sohalarini birlashtirgan holda, murakkab muammolarni har tomonlama o'rganish yondashuvidir. Bu yondashuv bilimlar integratsiyasi orqali yangi ilmiy yo'nalishlarni va yechimlar topishni maqsad qiladi. Interdissiplinar metodlar – dars jarayonlarida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida faollikni oshiradi, o'quvchilarning bilimlarini faollashtirish hamda shaxsiy bilim-ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi¹. XXI asrning so'nggi yillaridagi ilmiy tadqiqot ishlari natijalari fanlararo integratsiya orqali pedagogika fanining rivojlanishiga hissa qo'shdi. Bu esa o'z navbatida maktablar va oliy o'quv yurtlarining o'quv amaliyotiga interdissiplinar metodlar asosida yondashuvlarni joriy etish imkoniyatini kengaytirdi. Interdissiplinar metodlar turli fanlarning nazariyalari, metodlari va bilimlarini birlashtirib, murakkab masalalarni hal qilish va tadqiqotlar o'tkazish uchun qo'llaniladi. Bu metodlar fanlar o'rtasidagi chegaralarni buzib, yangi va innovatsion yondashuvlarni yaratishga yordam beradi. Ushbu yondashuvda o'quvchilar muayyan fan doirasida mavzular orasidagi aloqalar va o'zaro ta'sirni anglab, fan ichidagi ko'p qirrali bilimlarni integratsiyalash orqali yanada samarali o'rganish imkoniga ega bo'ladilar. Tadqiqot jarayonida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va kasbiy rivojlantirish markazlaridagi qisqa muddatli kurslarning o'quv dasturlari tahlil qilinib, ularning samaradorligini oshirish maqsadida tonggi tadbirlar orqali tinglovchilarda emotsional ong va kreativ tafakkurni faollashtirish mexanizmlari takomillashtirildi. Bunda interdissiplinar yondashuv va art-pedagogik treninglarning motivatsion-kognitiv imkoniyatlaridan foydalanish asosida o'quv jarayoni metodik jihatdan boyitildi. Loyihaning asosi sifatida madaniyat, san'at va ilm-fan sohalarini qo'llab-quvvatlash tamoyillari olindi.

Interdissiplinar yondashuv va art-pedagogik modelning samaradorligini tajribada sinab

ko'rish maqsadida Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi (Markaz)da qisqa muddatli seminar va tongi tadbirlar tashkil etildi.

ART-PEDAGOGIKA ASOSIDA O'QITUVCHILARNI HAMKORLIKDA O'QITISH VA SOG'LOM PSIXOLOGIK IQLIMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI

1-bob. Umumiy qoidalar.

Uzluksiz kasbiy ta'lim tizimi doirasida olib borilayotgan nevrologik va kognitiv fanlar sohasidagi tadqiqotlar ijodkorlikni intellektual faoliyat bilan uzviy bog'laydigan yangi ilmiy dalillarni tobora ko'proq taqdim etmoqda. Ushbu tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ijtimoiy va hissiy muvaffaqiyatga erishish, shuningdek, XXI asr pedagoglari uchun muhim hisoblangan ijodiy va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. San'at integratsiyasiga asoslangan ta'lim yondashuvlari pedagoglarni fikrlash jarayonida moslashuvchanlikni, noaniqlikka bag'rikenglikni va tajriba o'rganishning tabiiy qismi sifatida xatolardan saboq olishga yo'naltiruvchi ijodiy faoliyatga jalb etadi

Konsepsiyada qo'llanilgan asosiy tushunchalar:

Hissiy ko'nikmalarni rivojlantirish – o'qituvchining o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish qobiliyatini oshirish, stressni yengish, o'zini yaxshi his qilish.

Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish – jamoaviy ish, boshqalar bilan samarali aloqalar o'rnatish, empatiya ko'nikmalarini oshirish.

Ijodiy tafakkur va kreativlikni rivojlantirish – yangi yondashuvlar va metodlarni ishlab chiqish, ijodiy fikrlashni oshirish.

O'zgarishlarga moslashish – innovatsion fikrlash va o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini shakllantirish.

Axloqiy va estetik qadriyatlarni o'rgatish – san'at orqali ijtimoiy va axloqiy mas'uliyatni, estetik didni rivojlantirish.

2-bob. Art-pedagogik model asosida o'qituvchilarni hamkorlikda o'qitish orqali kasbiy birdamlik va sog'lom psixologik iqlim muhitini shakllantirishga to'sqinlik qiluvchi obyektiv va subyektiv omillarni aniqlash

Maktab va pedagogik jamoalarda art-pedagogik muhitni shakllantirishga to'sqinlik qiluvchi

¹ Alovddinova N.M. Interdissiplinar yondashuv asosida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish mexanizmlarini takomillashtirish ("Texnologiya" fani misolida) // Kasbga yo'naltirish / Professionalnaya oriyentatsiya. – 2024. – Vol. 7. – Issue 2. – B. 10–12. DOI: 10.34920/SO/VOL_2024_ISSUE_7_2

obyektiv va subyektiv omillarni aniqlash – bu o'qitish sifati, tarbiyaviy ishlarning samaradorligi va ijodiy muhit rivoji uchun muhim bosqich hisoblanadi. Quyida bu omillarni qanday aniqlash mumkinligi haqida bosqichma-bosqich ko'rib chiqamiz:

Obyektiv omillarni aniqlash.

a) Tahliliy metodlar:

Material-texnik baza tahlili: maktabda san'at vositalari, tasviriy san'at jihozlari, musiqa asboblari, (sahna) vositalari tashkil etish va o'tkazish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

Dars jadvali va o'quv rejasini tahlil qilish: san'atga oid fanlar (musiqa, tasviriy san'at, teatr, adabiyot) qamrovi, hajmi va ahamiyatini o'rganish.

Moliyalashtirish manbalarini aniqlash: san'atga ajratilgan mablag'lar yetarli yoki yo'qligini baholash.

Subyektiv omillarni aniqlash:

1) intervyu va suhbatlar, o'qituvchilar bilan suhbat orqali ularning san'atga, ijodiy yondashuvga bo'lgan munosabatini o'rganish;

2) rahbariyatning art-pedagogik tashabbuslarga bo'lgan munosabatini bilish.

b) Psixologik diagnostika:

1) o'qituvchilarning ijodiy fikrlash darajasi, ochiqdigi, yangilikka tayyorligi haqida psixologik testlar so'rovlar o'tkazib borilishini ta'minlash;

2) o'qituvchilarning san'atga qiziqishi va ishtiyoqi darajasini aniqlash.

c) Kuzatuv:

1) maktabdagi art-pedagogik tadbirlarda o'qituvchilarning faolligi;

2) o'qituvchilarning dars jarayonida ijodiy metodlardan foydalanish holatlari.

d) Refleksiya metodlari:

1) o'qituvchilardan o'z faoliyati yuzasidan tahliliy yozma fikr (refleksiya) olish;

2) o'qituvchilarning darslarda o'zlarini qanday his qilishlari haqida fikrlarini o'rganish.

Xususan, xorijiy tajribalar asosida ijtimoiy-psixologik uyg'unlikni ta'minlovchi art-pedagogik modellarning funksional xususiyatlari aniqlandi.

3-bob. O'qituvchilarni art-pedagogik modelga asoslangan hamkorlikda o'qitish orqali kasbiy birdamlik va sog'lom psixologik

iqlimni rivojlantirishning maqsadi, asosiy vazifalari va prinsiplari

Kasbiy faoliyatda ortiqcha hissiy stressni bar-taraf etishda san'at orqali o'qituvchining hissiy madaniyat darajasini oshirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish. Emotsional madaniyatning eng muhim ko'rsatkichlari o'qituvchining hissiy barqarorligi, empatiyasi va hissiy moslashuvchanligining yuqori darajada rivojlanganligidir. Shu munosabat bilan pedagog-o'qituvchilarda emotsional barqarorlik va o'z-o'zini tartibga solish mexanizmlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchilarni art-pedagogik modelga asoslangan hamkorlikda o'qitish orqali kasbiy birdamlik va sog'lom psixologik iqlimni rivojlantirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- art pedagogik faoliyatining asosiy yo'nalishlari sifatida pedagogika, psixologiya va san'atshunoslik kabi fan sohalarini birlashtirishga asoslangan axloqiy va estetik o'zaro ta'sir tizimini ta'lim maydonida yaratish;

- art pedagogika orqali o'qituvchilarning hissiy zo'riqishining oldini oluvchi sog'lom-ruhiy muhitni odatdagi ish kundalik faoliyatiga singdirish choralari ko'rish;

- art pedagogika orqali o'zaro hurmatga asoslangan mehr madaniyatidan to'laqonli foydalanish;

- art pedagogika orqali o'z pedagogik faoliyatidan zavqlanishni, hayot go'zalligini san'at orqali his qilish, stressni kamaytirishni, xotirjamlik va boshqa ijobiy kayfiyatni his qilish, meditatsiya mashqlarini doimiy ravishda bajarish;

O'qituvchilarni art-pedagogik modelga asoslangan hamkorlikda o'qitish orqali kasbiy birdamlik va sog'lom psixologik iqlimni rivojlantirish quyidagi asosiy prinsiplarga tayanadi:

- pedagogik konsalting;
- o'zaro tajriba almashinuvi;
- san'at+pedagogika+psixologiya sohalarini birlashtirish va maktab muhitiga kiritish.

4-bob. "Art-pedagogik model asosida o'qituvchilarni hamkorlikda o'qitish orqali kasbiy birdamlik va sog'lom psixologik iqlimni rivojlantirish" yo'nalishlari hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari

Art-pedagogik model asosida o'qituvchilarni hamkorlikda o'qitish orqali kasbiy birdamlik va sog'lom psixologik

iqlimni rivojlantirish. Emotsional zo'riqishning mavjudligi ayniqsa turli yosh xususiyatga ega o'qituvchilarda yaqqol namoyon bo'ladi. Pedagogik faoliyatning keskin vaziyatlari ularning sodir bo'layotgan voqealarni baholashda nomukammalligini, pedagog o'quvchilarga nisbatan impulsiv xatti-harakatlarni keltirib chiqaradi, tashabbuskorlik yo'qligi, passivlik va o'zlarining kasbiy yaroqsizligini his qilish kabi holatlarning kuzatilishiga olib keladi. **Art-pedagogik konsepsiya asosida o'qituvchilarni hamkorlikda o'qitish orqali kasbiy birdamlik va sog'lom psixologik iqlimni rivojlantirishni** ro'yobga chiqarish, jamoada hamkorlik munosabatlarni yanada mustahkamlash san'atni kundalik hayotga kiritish va amalga oshirishning asosiy mexanizmlari quyidagilardan iborat:

- maktab va pedagogik jamoalarda art-pedagogik muhitni shakllantirishga to'sqinlik qiluvchi obyektiv va subyektiv omillarni aniqlash;
- ochiq muloqot va fikr almashish uchun qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;
- qaror qabul qilish jarayonida hamkorlikni oshirish, har bir xodimning fikrini inobatga olish.
- yaxshi boshqaruv odatlari, etika va qadriyatlarini joriy etish o'qituvchining fikri inobatga olinadigan ijtimoiy muhitni yaratish;

Estetik savodxonlikni rivojlantirish - san'at, go'zallik va estetik qadriyatlarni tushunish va qadrlash qobiliyatini shakllantirish:

- o'qituvchilarga san'at va madaniyatga oid darslar, master-klasslar o'tkazish;
- san'at ko'rgazmalari, teatr va musiqa tadbirlarini tashkil qilish;
- maktab muhitini estetik jihatdan bezash (dekoratsiya, bezaklar, san'at asarlari);
- estetik faoliyatga (chizish, qo'shiq kuy-lash, drama) keng imkoniyat yaratish.

Ijtimoiy ishonch - jamoada bir-biriga ishonish va hurmat ko'rsatish muhiti:

- jamoa a'zolari o'rtasida ochiq va samimiy muloqotni rag'batlantirish;
- ishonchli munosabatlarni mustahkamlash uchun jamoaviy o'yinlar va treninglar o'tkazish;
- muammolarni birga hal qilishga yo'naltirilgan faoliyatlar tashkil etish.

Peer-to-peer learning - o'qituvchilar o'rtasidagi samarali hamkorlik tizimini yaratish.

Emotsional barqarorlik - stressni boshqarish va ijobiy ruhiyatni saqlash qobiliyati;

– stressni kamaytirish bo'yicha mashg'ulotlar (relaksatsiya, meditatsiya, nafas olish texnikalari).

Psixologik yordam va konsultatsiya xizmatlarini tashkil etish.

- Muntazam dam olish va jamoaviy tadbirlar: sport, sayr, madaniy tadbirlar, seminar-treninglar, dars tahlillari, teatr mashg'ulotlari, vizual ekspressiya, davra suhbatlari, podkastlar, hissiy zo'riqishni yumshatuvchi treninglar tadbirlarni tizimli ravishda tashkil etish;

- Emotsiyalarni ifoda etishga imkon beruvchi san'at terapiyasi (rassomchilik, drama).

- Integrativ yondashuv, estetik faoliyat, kollektiv refleksiya, psixologik iqlim va ijtimoiy muloqot madaniyati.

- Kollektiv refleksiya uchun muntazam muhokama va tahlil sessiyalarini tashkil etish.

Tizimli va maqsadli kurslarni tashkil etish.

- Muloqotni oshirish uchun o'yinlar, treninglar va jamoaviy mashg'ulotlarni o'tkazish.

- Psixologik iqlimni yaxshilash uchun rahbarlik va jamoa a'zolari o'rtasida samarali muloqot va tushunishni rivojlantirish.

Natijalar va xulosa. Yuqoridagi tahlillar, ishlab chiqilgan takliflar hamda Markaz tashabbusi bilan bugungi kunda amaliyotda qo'llanayotgan ushbu yondashuvning ilk natijalaridan kelib chiqib, shunday **xulosalarga** kelish mumkin:

1. Ishlab chiqilgan Konsepsiya asosida qisqa muddatli kurslar va tonggi tadbirlar Samarqand pedagogik mahorat markazida aprobatsiyadan o'tkazilmoqda.

2. Psixologik va metodik uyg'unlik ta'minlanadi.

3. Jamoada madaniy-ijodiy muhitni yaratish, sog'lom psixologik atmosfera shakllantiriladi.

4. O'zaro hurmatga asoslangan mehr madaniyatini mustahkamlaydi.

5. O'qituvchining kasbiy va shaxsiy o'sishini qo'llab-quvvatlaydi, ijodkorlik va estetik tafakkurni rivojlanadi.

6. O'z hissiyotlarini angelaydi, stressni kamaytiradi, ichki uyg'unlikni topadi va jamoa bilan barqaror muloqot olib borishga tayyor bo'ladi.

7. Umuman olganda, har bir o'quv jarayonini samarali tashkil etishda ma'lum bir yondashuv vosita vazifasini bajarsa, uni tashkil etuvchi murabbiy(o'qituvchi)ning munosabati va pedagogik-psixologik mahorati asosiy mohiyatni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Fodalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibragimov A.A. Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish tizimini ko'p vektorli yondashuv asosida takomillashtirish: Pedagogika fan. fal dok. diss. – T: 2018.
2. Eisner E.W. (2002). The Arts and the Creation of Mind. Yale University Press.
3. Gardner H. (1983). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. Basic Books.
4. Goleman D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. Bantam Books.
5. Darling-Hammond L. et al. (2020). The Design of SEL through Schools. CASEL.
6. Johnston P.H. (2004). Choice Words: How Our Language Affects Children's Learning. Stenhouse Publishers.
7. Bennett M. (1993). Towards Ethnorelativism: A Developmental Model of Intercultural Sensitivity. In Education for the Intercultural Experience.
8. Cooper C. (2011). Empathy in Education: Engagement, Values and Achievement. Continuum Publishing.
9. Железовская Г.И., Еремина С.В. Принципы формирования дидактических терминов // Ж. Педагогика, 1999. - № 5. - С. 18 -22.
10. Zubaydullayev O'. Bo'lajak o'qituvchilarni art-pedagogika asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - 2023 .
11. Житная И.В. Педагогические условия эстетического развития детей дошкольного возраста: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Ростов-на-Дону, 2006. – 22 с.
12. Eisner E.W. The Arts and the Creation of Mind. – New Haven: Yale University Press, 2002. – P. 13-15..
13. Cooper C. Empathy in Education: Engagement, Values and Achievement. – London: Continuum Publishing, 2011. – P. 45-50.
14. Alovddinova N.M. Interdisziplinär yondashuv asosida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish mexanizmlarini takomillashtirish ("Texnologiya" fani misolida) // Kasbga yo'naltirish / Professionalnaya oriyentatsiya. – 2024. – Vol. 7. – Issue 2. – B. 10–12. DOI: 10.34920/SO/VOL_2024_ISSUE_7_2
15. Arts Education for America's Students: A Shared Endeavor. A coalition publication by Americans for the Arts, National Art Education Association, National Association for Music Education, 2013. Retrieved from: <https://www.americansforthearts.org>
16. Arts Education for America's Students: A Shared Endeavor. Americans for the Arts, National Art Education Association, National Association for Music Education, 2013. URL: <https://www.americansforthearts.org>